

## QURILISHDA LOYIHA BOSHQARUVI STRATEGIYASINING ILMIY- USLUBIY MUAMMOLARI

**Pulatov Shaxron Axmedovich**

SamDAQU, “Biznesni boshqarish” kafedrası  
tadqiqotchisi

### Annotatsiya

Qurilish tashkilotlarida loyiha boshqaruvi konsepsiyasining qo‘llanishi ularning boshqaruv tizimlarida funksional va strategik masalalarni qayta ko‘rib chiqishga sabab bo‘lmoqda. Bunda strategik maqsadlarning aniqligi va asoslanganligi boshqaruv samaradorligining asosiy manbasi bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur maqolada loyiha boshqaruvida qurilish muddatining ahamiyati va strategiyani tanlashdagi o‘rni tahlil qilingan va muallifning uslubiy yondashuvi ko‘rsatilgan.

**Kalit so‘zlar:** loyiha boshqaruvi, qurilish loyihasi, qurilish muddati, strategik maqsadi

### Аннотация

Применение концепции проектного управления в строительных организациях является причиной пересмотра функциональных и стратегических вопросов в их системах управления. В этом случае ясность и обоснованность стратегических целей служат основным источником эффективности управления. В данной статье анализируется важность строительного периода в проектной управлении и его роль в выборе стратегии, а также представлен методический подход автора.

**Ключевые слова:** проектный управления, строительный проект, сроки строительства, стратегическая цель

### Abstract

The application of project management concepts in construction organizations prompts a reconsideration of the functional and strategic aspects of their management systems. In this case, clarity and validity of strategic objectives serve as the primary source of management effectiveness. This article analyzes the importance of the construction period in project management and its role in strategy selection, and presents the author’s methodological approach.

**Keywords:** project management, construction project, construction timeframe, strategic goal

### KIRISH

Loyiha boshqaruvi iqtisodiyotning real sohalari va tarmoqlarida XX asrning ikkinchi yarmida jadal sur‘atlar bilan qo‘llanilib kelingan bo‘lib, sanoatning barcha korxonalar va tashkilotlarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning muhim vositasi bo‘lib xizmat qilgan. Qurilish sohasi ham loyiha boshqaruvi nazariyasi va amaliyotidan keng foydalanib kelmoqda. Loyiha boshqaruvini qurilishda joriy etilishi qurilish ishlab chiqarishining jarayonli yondashuviga mos kelishi ishlab chiqarishi jarayonining murakkabligi va keng qamrovliligi, ishtirokchilarning xilma-xilligi va

texnologik bog‘lanishlarning murakkabligi bilan asoslanishi mumkin. Aynan shu omillar qurilishda loyiha boshqaruvi bilan bog‘liq muammolarga sabab bo‘ladi.

### **ADABIYOTLAR SHARHI**

Loyiha boshqaruvi konsepsiyasi menejment fanining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllanib, uning nazariy asoslari va amaliy qo‘llanish masalalari ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlarning tadqiqotlarida keng yoritilgan. Xususan, Kim Xeldman, Richard Nyuton, Clifford Grey va Erik Larson, Leyna Fisher, Gerd Ditzelm, A.S. Tovb, G.L. Tsipes, H. Kerzner kabi tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida loyiha boshqaruvining metodologik asoslari, rejalashtirish, resurslarni taqsimlash hamda nazorat mexanizmlari tizimli ravishda tahlil qilingan [1],[2],[3],[4],[5],[6],[7]. Ushbu ishlarda loyiha boshqaruvi universal boshqaruv vositasi sifatida baholanib, turli tarmoqlarda, jumladan, qurilish sohasida ham qo‘llash imkoniyatlari asoslab berilgan.

Qurilish loyihalarini boshqarish masalalari alohida ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanib, bu borada loyihalarning murakkabligi, ishtirokchilar ko‘pligi va texnologik bog‘liqliklarning yuqori darajada ekanligi ta‘kidlanadi. Xususan, Lyu Yujen, A.A. Novikov va boshqa olimlarning tadqiqotlarida qurilish loyihalarini boshqarish modellarining o‘ziga xos jihatlari, shuningdek, loyiha ishlarini optimal ketma-ketlikda amalga oshirish masalalari ko‘rib chiqilgan [8],[9].

Ilmiy adabiyotlarda qurilish loyihalarining iqtisodiy samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida qurilish muddati alohida e‘tirof etiladi. A.O. Lisitsin, Ye.Yu. Marinevich, I.I. Mazur, V.D. Shapiro va boshqa tadqiqotchilar ishlarida qurilish muddatlarini qisqartirish, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va investitsiya jarayonlarini optimallashtirish masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan [10–12]. Shuningdek, mahalliy olimlar N.T. Muxamedov, Z.M. Isaqova, I.A. Usmanov, X.T. Buriyev, Sh.M. Mirzoyevlarning izlanishlarida loyiha boshqaruvining huquqiy, tashkiliy va raqamli iqtisodiyot sharoitidagi jihatlari tahlil qilingan [13],[14],[15],[16].

Mavjud ilmiy tadqiqotlarda qurilish muddatiga asosan operativ va taktik boshqaruv nuqtai nazaridan yondashilgan bo‘lib, bu yo‘nalishda muayyan ilmiy natijalarga erishilgan. Shu bilan birga, qurilish muddatining tashkilot strategiyasi bilan uzviy bog‘liqligini yanada chuqurroq ochib berish imkoniyatlari mavjud. Qurilish muddatini boshqarish ko‘pincha alohida loyiha darajasidagi vazifa sifatida talqin qilingan bo‘lsa-da, uni tashkilotning uzoq muddatli strategik maqsadlari bilan uyg‘unlashtirish masalasi istiqbolli ilmiy yo‘nalish sifatida namoyon bo‘lmoqda. Mazkur yondashuv loyiha boshqaruvi strategiyasini takomillashtirish, boshqaruv samaradorligini oshirish hamda qurilish tashkilotlarining raqobatbardoshligini kuchaytirish uchun muhim ilmiy-uslubiy imkoniyatlarni ochib beradi va ushbu tadqiqotning dolzarbligini asoslaydi.

### **METODOLOGIYA**

Tadqiqot jarayonida loyiha boshqaruvi va strategik menejment nazariyalarining asosiy yondashuvlaridan foydalanildi. Qurilish sohasida loyiha muddatining strategik ahamiyatini aniqlash maqsadida tizimli tahlil, mantiqiy umumlashtirish va taqqoslash usullari qo‘llanildi. Ilmiy adabiyotlar tahlili orqali loyiha boshqaruvida mavjud

konsepsiyalar o'rganilib, ularning qurilish amaliyotiga tatbiq etilish xususiyatlari baholandi. Tadqiqotda qurilish tashkilotlarining amaliy faoliyati bo'yicha ochiq ma'lumotlar va kuzatuv natijalari asosida xulosalar shakllantirildi. Loyiha muddatiga asoslangan strategik yondashuvlarni tasniflashda guruhlash va tizimlashtirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqot natijalari qurilish tashkilotlarida loyiha boshqaruvi strategiyasini shakllantirish va boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi ilmiy-uslubiy tavsiyalar ishlab chiqishga yo'naltirilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Qurilish korxonalari va tashkilotlarida loyihalarni mustaqil boshqaruv elementi sifatida qabul qilish mamlakatimiz uchun muammoli masalalardan hisoblanadi.

Qurilish amaliyotida funksional yondashuv saqlanib, loyiha jamoasi boshqaruv tizimining bir bo'lagi hisoblanib uning faoliyati an'anaviy funktsiya va tashkiliy tuzilmaga moslashtirishga etibor qaratiladi.

Funksional boshqaruv tizimida an'anaviy iyerarxik (bo'ysunish) pillapoyaning buzilishi tashkilotning yemirilish belgisi sifatida qaraladi. Shuning uchun ham qurilish obyektlari va uchastkalarining rahbarlari bevosita markaziy apparatga bo'ysundiriladi, modomiki qurilish loyihasining jamoasi o'z muammolarini mustaqil hal qilishi mumkin.


Xuddi shunday, tashkilotning maqsadiga loyiha boshqaruvining uzluksizligi va bir maromdaligiga qaratilishi lozim bo'lgan bo'lsada, biz o'rgangan tashkilotlarda faqat amaldagi loyihani boshqarish samaradorligiga e'tibor qaratilgan. Qurilish amaliyotidagi boshqa tizimli kamchiliklarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, boshqaruvning tamoyillari asosan ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi, ammo bugungi kunda boshqaruv samaradorligi tamoyili ustuvor ahamiyatga ega bo'lishi lozim.

Qurilish tashkilotlarining rahbarlarida ham loyiha jamoasini nazorat qilishga moyilligi sezilmoqda. Bu esa boshqaruv tizimning moslashuvchanlik imkoniyatlarini sezilarli darajada cheklaydi.

Ko'rinib turibdiki, viloyat qurilish majmuasida loyiha boshqaruvi tizimi yetarlicha rivojlanmagan va uning nazariy-uslubiy asoslari ham qo'llanilish darajasi past.

Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, aynan qurilish amaliyotida loyiha boshqaruvi konsepsiyasi qo'llanilishi dolzarb muammolardan hisoblanadi. Buning uchun ushbu konsepsiyaning strategik jihatlari bilan bilan bog'liq muammolarini hal qilish lozim, ya'ni loyihalar va ularning samaradorlik mezonlari strategiyaning boshlang'ich elementi sifatida tan olinishi lozim. Bu esa "qurilish muddati" tushunchasining korxonalar strategiyasi nuqtai-nazaridan talqin qilishni taqozo qiladi. Viloyat qurilish tashkilotlarida loyiha boshqaruvi tizimini joriy qilish uchun bizlar birinchi o'rinda loyiha boshqaruvi strategiyasini joriy qilish bo'yicha ilmiy-uslubiy tavsiyalarni asosladik.

Strategik maqsadlar va yoʻnalishlar korxonalar menejment tizimining asosiy elementlaridan hisoblanadi. Anʼanaviy yondashuvda tashkilot strategiyasi uning uzoq muddatli maqsadlariga erishish uchun ilmiy-uslubiy va tashkiliy jihatdan asoslangan harakatlar va siyosatlar tizimini tashkil qiladi. Qurilish sohasida strategiya tashkilotning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan muhim mexanizm yoki vosita rolini bajaradi. Loyiha boshqaruvi konsepsiyasining bosh mezonini alohida taʼkidlab oʻtish lozim. Agar loyihani boshqarishda loyiha muddatini asoslash va qisqartirish tamoyilini eʼtiborga oladigan boʻlsak, loyiha boshqaruvi konsepsiyasida boshqariladigan barcha loyihalarning muddatlari va tarkibidagi ishlarning vaqt parametrlari tanlanadigan strategiyaning bosh omili sifatida qabul qilinadi (1-rasm).



**1-rasm. Qurilish muddatiga nisbatan tashkilotning strategik yondashuvlari<sup>1</sup>**

Strategik yondashuvlarga asosan loyiha boshqaruvi tizimida maqsadlarning uchta asosiy turi ajratiladi:

A) loyihalarni meʼyorlashtirishga qaratilgan strategiya. Bugungi kunda qurilish loyihalarining ilmiy asoslangan va resurslar bilan taʼminlangan obyektiv muddatini aniqlash eng dolzarb muammolardan hisoblanadi. Masalan, qurilish loyihasining muddati qisqartirilsa texnika moddiy va mehnat resurslari past samara bilan ishlaydi va qurilish texnologiyasini buzilishiga asos boʻladi. Loyiha muddati kattaroq qilib belgilansa, mavjud resurslardan foydalanish darajasi pasayadi. Chunki ishlarni bajarishda texnologik meʼyorlardan kam resurs jalb qilinadi va ilgʻor texnologiyalardan foydalanish cheklanadi.


Mazkur strategiyaning qoʻllanilishi qurilish tashkilotlarida quyidagi bogʻlanishlarni hisobga olinishini taqozo qiladi. Resurslarni meʼyorlashtirish, qurilish loyihalari sonini meʼyorlashtirish, qurilish obyektlarining kattaligi qiymati va ixtisoslashuvini meʼyorlashtirish. Loyiha boshqaruvining mazkur strategiyasi tashkilotda ishlab chiqarish bilan bir qatorda tahliliy faoliyatni keng qoʻllanilishini talab qiladi. Chunki loyiha muddatini ilmiy asoslash xatoliklarni va loyiha ishtirokchilari oʻrtasidagi munosabatlarning buzilishini oldini oladi.

B) loyihasining muddatini tartibga solish strategiyasi. Ushbu strategiyaning bosh mezonini boʻlib direktiv yoki hisoblangan muddatlarning bajarilishini taʼminlashdan

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

iborat. Demak, ushbu strategiyada qurilish loyihasining muddati muhokama qilinmaydigan vaqt parametri bo‘lib xizmat qiladi. Shunga asosan, tashkilot boshqaruv tizimining strategik maqsadi bo‘lib barcha turdagi resurslarni samarali yo‘naltirish va ishlab chiqarishning aynan shu maqsadlarga qaratishdan iborat. Mazkur strategiyaning tarkibi va yo‘nalishlari resurslar tejamkorligi mezoniga bo‘ysunadi.

D) loyiha muddatlarini qisqartirish strategiyasi. Mazkur strategiyaning yuqoridagi strategiyalardan farqi shundaki belgilangan qurilish muddatini takomillashtirish uchun boshlang‘ich shart sifatida qabul qilinadi. Bunda tashkilot qurilish muddatini voqealar rivojlanishining eng yomon ssenariyning natijasi deb hisoblanadi, ya’ni loyihaning barcha omillari salbiy ta’sir ko‘rsatganda shartnomadagi muddat kelib chiqadi.



**2-rasm. Loyiha boshqaruvi tizimidagi strategiyalarning tavsifi va xususiyatlari<sup>1</sup>**

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

Strategik maqsadning mazmuni ishlab chiqarish va boshqaruv texnologiyalarini doimiy takomillashtirish, yangi yechimlarini topish va resurslar samaradorligini oshirishdan iborat. Quyidagi rasmda loyiha boshqaruvi tizimidagi strategiyalarning o'ziga xos jihatlari yoritib berilgan (2-rasm).

Qurilish muddatiga asoslangan strategiyaning o'ziga xosligi unga bo'lgan munosabat va shu bilan bog'liq xulq-atvor bilan bog'liq. Agar birinchi (A) strategik maqsadni tanlagan tashkilotlar qurilish muddatini to'g'ri tanlash orqali samaradorlikni oshirsa, ikkinchi (B) maqsad resurslar samaradorligiga bog'lanadi, uchinchi esa (D) muddatni qisqartirish samarasiga e'tiborni qaratadi. Shuni ta'kidlash joizki har bir maqsad qurilish tashkilotlarning strategik imkoniyatlarini ko'rsatadi. Salohiyatning oshishi murakkabroq strategiyani tanlashga undaydi.

### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Olib borilgan tadqiqot natijalari qurilish tashkilotlarida loyiha boshqaruvi strategiyasini shakllantirish boshqaruv samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Qurilish loyihalarining murakkabligi va muddat omilining ustuvorligi loyiha boshqaruviga faqat operativ emas, balki strategik yondashuvni talab etadi. Qurilish muddatini tashkilotning uzoq muddatli rivojlanish maqsadlari bilan bog'lash loyiha boshqaruvi tizimining barqaror ishlashini ta'minlaydi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi:

- qurilish tashkilotlarida loyiha boshqaruvi strategiyasini alohida boshqaruv yo'nalishi sifatida joriy etish;
- qurilish muddatini loyihalarni baholash va tanlashda asosiy strategik mezon sifatida belgilash;
- loyiha jamoalarining mustaqilligini oshirish va ularni natijaga yo'naltirilgan boshqaruv tamoyillari asosida shakllantirish;
- resurslarni rejalashtirishda muddat va samaradorlik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash;
- loyiha boshqaruvi jarayonlarida tahliliy va monitoring mexanizmlarini kuchaytirish.

Mazkur takliflarning amaliyotga tatbiq etilishi qurilish tashkilotlarida loyiha boshqaruvi tizimini takomillashtirish, raqobatbardoshlikni oshirish va qurilish loyihalarining yakuniy natijalarini yaxshilashga xizmat qiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Kim Xeldman. PMP Project Management Professional Practice Tests: 2021 Exam Update Kim Xeldman, Vanina Mangano
2. Ричард Ньютон. Управление проектами от А до Я. Подробнее на [livelib.ru: https://www.livelib.ru/author/195287/top-richard-nyuton](https://www.livelib.ru/author/195287/top-richard-nyuton) .
3. Грей, К.Ф. Управление проектами: Практическое руководство / Ф-Грей Клиффорд, Эрик У. Ларсон // Пер с англ. — М.: Издательство «Дело и Сер-вис», 2003. — 528 с.

4. Лэйна Фишер. «Совершенство на практике. Лучшие проекты в области управления бизнес-процессами и workflow». Пер с англ. «Весть-Метатехнология». — 432 с.. 2000.
5. Дитхелм, Г. Управление проектами / Г. Дитхелм — СПб.: Издательский дом «Бизнес-пресса», 2004. — 400 с.
6. Товб А.С., Ципес Г.Л. Управление проектами. Стандарты, методы, опыт // М.: Олимп-бизнес. 2003. 240 с.
7. Kerzner H. Project Management: A Systems Approach to Planning, Scheduling, and Controlling. — 12th ed. — John Wiley & Sons, 2017. — 1200 p.
8. Лю Южэнь Специфика модели управления строительными проектами в Китае. Дис. ... канд. экон. наук. – Москва, 2022. – 215 с.
9. Новиков А.А. Модели и эвристические алгоритмы определения оптимальной очередности выполнения строительных проектов Диссертация канд. техн. наук. – Воронеж, 2007. – 136 с.
10. Лисицын, А.О. Проект и проектное управление/ А. О. Лисицын // Вестник международного института управления. — 2017. — № 2. — С. 62-64;
11. Мариневич Е.Ю. Управление инвестиционно-строительными проектами на основе интегрированных контрактов. Автореферат. дис. ... канд. экон. наук. – Москва, 2010. – 18 с.
12. Мазур, И.И. Управление проектами / И.И. Мазур, В.Д. Шапиро, Н.Г. Ольдерогге. — М.: Омега-Л, 2007. — 664 с.
13. Мухамедов Н.Т. Правовые аспекты частно-государственных партнерств в сфере проектного управления // Вестник экономики и права. — 2020. — № 4. — С. 112-125.
14. Isaqova Z.M. Loyiha boshqaruvi tizimlarini joriy etish: tavsifi va innovasion iqtisodiyotda amalga oshirish shartlari. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2019 yil. – 110-115 b.;
15. Усманов И.А., Буриев Х.Т. Совершенствование расчёта экономического эффекта от сокращения сроков строительства // Alisher Navoi international congress on social sciences & humanities. Tashkent. May 22-23, 2023. 119-126 б.;
16. Mirzoyev Sh.M. Raqamli iqtisodiyotda loyiha boshqaruvi // Ekonomika i sosium №9(100). 2022. 474-477 б.



# Marketing

*ilmiy, amaliy va ommabop jurnali*

**Muharrir:**

**Ingliz tili muharriri:**

**Rus tili muharriri:**

**Musahhih:**

**Sahifalovchi va dizaynerlar:**

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

**2026-yil, yanvar, 1-son**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

[info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**